

BUYRAK YALLIG`LANISHI

*MARG`ILON SHAHAR 1-SON ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI JAMOAT
SALOMATLIGI TEXNIKUMI O`QITUVCHISI*

Abdullayeva Dilshoda

Annotatsiya : *Ushbu maqolada buyrak yallig`lanishi, ularning vazifalari va faoliyatiga to`liq tarzda ifodalab berilgan.*

Kalit so`zlar: *Nefrit, gipertenziya, davolash usullari, transplotatsiya. nefronlar, kreatinin qiymatlari, dializ, o`tkir nefrit.*

KIRISH

Buyraklar 1 juft bo`lib tanadagi chiqindi moddalarni, zararli tarkibiy qismlarni va ortiqcha suyuqlikni filtrlaydigan va keyin ularni siydik bilan tanadan olib tashlaydigan organlardir. Buyraklarga bu funksiyalarni bajarishga imkon beruvchi subbirlklarga nefronlar deyiladi. Har bir buyrakda taxminan bir million nefron mavjud. Bu nefronlarning turli sabablar natijasida yallig`lanishi, buyrak yallig`lanishi (nefrit) deb ataladi. Buyrak yallig`lanishining belgilari bemordagi nefrit turiga qarab farq qilishi mumkin. Kasallikning dastlabki bosqichlarida bemorda buyrak yallig`lanishi belgilari bo`lmasligi mumkin. Kasallik vaqt o`tgan sari, alomatlar yanada og`irlashadi. Buyrak yallig`lanishining belgilari quyidagicha: siydik chiqarish paytida achishish yoki og`riq hissi, tez-tez siyish istagi, siydikdagi qon yoki yiring, qorin yoki buyrak qismida og`riq, ayniqsa, yuz, qo`l va oyoqlarda shish paydo bo`lishi, qayt qilish, ko`ngil aynishi. Buyrak yallig`lanishining sabablari nefrit turiga qarab farq qilishi mumkin. Ba`zi bemorlarda buyrakda yallig`lanishni keltirib chiqaradigan holatni aniqlash mumkin emas. Buyrak yallig`lanishi; Bu Gepatit B, Gepatit C, OIV yoki Beta deb ataladigan bakterial infeksiya tufayli yuzaga kelishi mumkin. Oiladagi ayrim shaxslarda nefritning avlodlar davomida paydo bo`lishi kasallikning genetik sababga ko`ra rivojlanishi mumkinligini ko`rsatadi. Ba`zi dorilar ham nefritga olib kelishi mumkin. Masalan, ba`zi antibiotiklar, steroid bo`lmagan yallig`lanishga qarshi dorilar va diuretiklar; buyrakning yallig`lanishiga olib kelishi mumkin. Nefrit va boshqa buyrak kasalliklari xavfini oshiradigan ba`zi omillar mavjud. Bu omillar oila a`zosining buyrak kasalligiga ega bo`lishi, gipertenziya, qandli diabet, semizlik, yurak kasalliklari

Ushbu xavf omillarining bir yoki bir nechtasiga ega bo`lgan odamlar muntazam ravishda buyrak tekshiruvidan o`tishlari kerak. Muntazam tekshiruvlar tufayli odamda yuzaga kelishi mumkin bo`lgan buyrak shikastlanishi erta davrda aniqlanishi mumkin. Erta tashxis bemorlarni davolashning muvaffaqiyatli natijasiga katta hissa qo`shadi. Binobarin, buyraklar faoliyatini saqlab qolishda erta tashxis qo`yish va davolash katta ahamiyatga ega. Buyrak yallig`lanishini davolash uchun birinchi navbatda bemorga tegishli tashxis qo`yish kerak. Tashxis qo`yish uchun birinchi navbatda bemorning kasallik tarixi olinadi va tekshiruv o`tkaziladi. Odatda bemordan so`raladigan birinchi testlar qon va siydik tahlilidir. Qon testi bilan o`lchanadigan BUN va kreatinin qiymatlari buyraklar faoliyati haqida ma`lumot beradi. Qon testi bilan qondagi natriy, kaltsiy, kaliy kabi elektrolitlar darajasini ham

tekshirish mumkin. Bu qiymatlar buyraklar yaxshi ishlayotganligini tushunishda ham yordam berishi mumkin.

Siydikda qon va oqsil mavjudligi siydik tahlili bilan ham tekshiriladi. Buyrakdagi zararni ko'rish uchun KT va ultratovush kabi usullar qo'llaniladi. Buyrak yallig'lanishi tashxisini tasdiqlash uchun buyrak biopsiyasi olinishi mumkin. Bemordagi nefrit turi ham biopsiya bilan aniqlanadi. Nefritning har bir turi o'ziga xos davolash usuliga ega. O'tkir nefrit vaqti-vaqti bilan davolanishni talab qilmasdan o'tib ketishi mumkin. Biroq, ko'pincha buyraklar ishlamay qolganda, tanadan ortiqcha suv va chiqindilarni olib tashlash uchun turli xil muolajalar qo'llaniladi. Surunkali nefritda bemor muntazam ravishda nazoratga chaqiriladi. Bemorning buyrak faoliyati va qon bosimi yaqindan nazorat qilinadi. Bunday bemorlar uchun qon bosimini tekshirish va shishishni kamaytiradigan dorilarni qo'llash mumkin. Lupus nefrit kabi holatlarda immunosupressiv dorilar buyurilishi mumkin. Nefrit tufayli og'ir buyrak yetishmovchiligini rivojlantirgan bemorlarda dializ bilan davolash foydali bo'lishi mumkin. Dializ bilan bemorning tanasida to'plangan chiqindi moddalar qurilma yordamida tozalanadi. Dializ qurilmasi qondagi zararli moddalarni filtrlash orqali buyrak vazifasini o'z zimmasiga oladi. Buyrak yetishmovchiligini uzoq muddatli davolash buyrak transplantatsiyasi orqali amalga oshiriladi. Bemorga mos keladigan buyrak topilgan taqdirda, bemorga sog'lom buyrak ko'chiriladi. Organ donori vafot etgan kishi yoki bemorning qarindoshi bo'lishi mumkin. Buyrak transplantatsiyasida muvaffaqiyat ko'rsatkichlari ancha yuqori. Shu sababdan buyrak ko'chirib o'tkazgan bemor hayotini sog'lom davom ettirishi mumkin. Transplantatsiyadan keyin tananing organi rad etishiga yo'l qo'ymaslik uchun bemor immunosupressant preparatlardan foydalanishi mumkin. Buyrak yallig'lanishi dietadagi o'zgarishlardan kelib chiqishi mumkin. Nefrit bilan og'rikan bemorlar buyrakni himoya qilish uchun ozroq protein, natriy va kaliyni iste'mol qilishlari mumkin. Nefrit bilan og'rikan bemorlar dietologning yordami bilan mos dietani tayyorlashlari mumkin. Buyraklar tanada juda muhim vazifani bajaradi. Bir daqiqa ichida ulardan bir litr qon o'tadi, doimiy ravishda toksinlar va zararli moddalardan tozalanadi. Biologik faol, xususan, renin – qon bosimini tartibga soluvchi, eritropoetin – eritrotsitlarning hosil bo'lish tezligini tartibga soluvchi moddalar ishlab chiqaradi. Suv muvozanatini va qondagi natriy, kaliy, fosfor kabi minerallar konsentratsiyasini nazorat qilishga yordam beradi. Buyraklar kasallanganda organizmning zaharlanish jarayoni boshlanadi. Organizmni toksinlar va zahardan tozalashga ichaklar, teri, o'pka va jigar yordam bera boshlaydi, lekin bu a'zolar bunga moslashmagani tufayli o'zi ham kasallanadi. Buyrak kasalligining dastlabki belgilari: peshob miqdorining ko'payishi yoki kamayishi, rangi to'q jigarrang yoki rangsiz bo'lishi, shish paydo bo'lishi, ko'pincha qo'l, oyoq, to'piq, yuz va ko'z ostida terining sarg'ayishi, muntazam charchoq va zaiflik, bel va qorinning pastki qismida og'riqlar, terida tez-tez toshmalar toshishi, yallig'lanish, qichishish, ko'ngil aynishi, ishtahaning bo'g'ilishi, kamqonlik. Buyrak kasalligining belgilari barchasi bir vaqtda kuzatilmaydi. Yuqorida ko'rsatilgan belgilar to'plamda ham, jadalligida ham farq qilishi mumkin. Buyrak kasalligi boshlang'ich davrda peshob, qon tahlili va ultratovush yordamida tekshirish orqali aniqlanadi. Nefrit (yun. nephros — buyrak) -buyrak tuzilmalarining yallig'lanish bilan kechadigan kasalliklar guruhi. H.ia glomerulonefrish, piyelonefrit, tubulointerstitsial, irsiy,

nefrotik sindrom va boshqa kiradi. N. rivojlanishiga bir qancha patogen mikroorganizmlar (bak teriya, viruslar), organizmning son qotishi, immun yetishmovchiliklar va boshqa sabab bo'ladi. N., asosan, immun sistema bilan bog'liq kasallik. Kasallikni rivojlanish mexanizmiga kura, immun-birikmali va autoimmun N. tafovut qilinadi. Birincha holda, antigen-antitelo birikmasi qonda hosil bo'lib, boshqa a'zo va to'qimalar bilan bir qatorda buyrakda ham yig'iladi va uni shikastlaydi. Autoimmui N.da esa buyrakda tuzilma elementlariga qarshi auto-antitelolar hosil bo'ladi, ular ushbu elementlarga birikib yallig'lanishni yuzaga keltiradi. N. kechishiga ko'ra, o'tkir, o'rtacha o'tkir, xavfli, tez rivojlanuvchi va surunkali xillarga ajratiladi. O'tkir N. ko'pincha yilning sovuq fasllarida uchrab, shish, qon bosimining oshishi, peshob miqdorining kamayishi, unda oqsil, eritrotsitlar uchrashi kabi klinik alomatlar bilan kechadi. O'rtacha o'tkir, xavfli va tez rivojlanuvchi N. nisbatan kam uchraydi, kasallikning bu turlarida letallik juda yuqori. Surunkali N. vaqt-vaqti bilan zo'rayib turadi va kasallikning hamma belgilari namoyon bo'lishi bilan kechadi.

Davosi. Parhez, peshob haydovchi, immun tiklovchi va boshqa dori-darmonlar buyuriladi. Organizmdagi infeksiya o'choklari aniqlanib, davolanadi. Ayrim og'irroq hollarda "sun'iy buyrak" apparatidan foydalaniladi. Buyrak faoliyatini tiklash iloji bo'lmaganda bemorga soglom buyrak ko'chirib o'tkaziladi (qarang Transplantatsiya). Surunkali N. bilan og'rigan bemorlar doimiy vrach nazoratida bo'lishi uchun ro'yxatga olinadi. N.ning oddini olishda organizmni chiniqtirish, streptokokkli tonzillit, faringit kabi o'tkir yuqumli kasalliklarni o'z vaqtida aniqlab davolash, uzoq vaqt sovuqsa qolmaslik lozim. Buyrak kasalliklari (nefropatiyalar) - bu buyraklarning normal funksiyasini buzadigan va organizmdagi suyuqlik-tuz muvozanati, chiqindi moddalarning chiqarilishi jarayonini buzadigan kasalliklar guruhi hisoblanadi. Ular inson sog'lig'iga jiddiy ta'sir ko'rsatadi va dunyo bo'ylab ko'p sonli odamlarning hayot sifatini pasaytiradi. Kasalliklarning sabablari Buyrak kasalliklarining yuzaga kelishiga turli omillar sabab bo'ladi: Yuqori qon bosimi (gipertenziya)- Yuqori qon bosimi (gipertenziya) buyrak kasalliklarining eng asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Uning buyraklarga ta'siri ikki tomonlama bo'lib, quyidagicha izohlanadi: Buyrakdagi qon tomirlarining shikastlanishi Yuqori qon bosimi qon tomirlariga ortiqcha bosim yaratadi, bu esa buyrakdagi mayda qon tomirlarining (glomerullar va peritubular kapillyarlar) devorlarini shikastlaydi. Natijada tomirlarning elastikligi kamayib, qon oqimi buziladi, buyrak to'qimalarida qon aylanishi yomonlashadi va oksigen yetishmovchiligi (gipoksiya) paydo bo'ladi.

Glomerullarni zo'riqishi va buzilishi

- Qon bosimining doimiy ko'tarilishi buyrakdagi filtrator tuzilmalar (glomerullar) ustida ortiqcha bosim hosil qiladi. Bu glomerullarni buzilishiga, ularning funksiyasining yomonlashishiga olib keladi, natijada siydikda oqsil chiqishi (proteinuriya) yuzaga keladi.

Buyrak funksiyasining pasayishi

- Tomirlarning va glomerullarining shikastlanishi natijasida buyraklarning filtratsiya qobiliyati kamayadi, chiqindi moddalarning to'planishi boshlanadi, bu esa o'z navbatida qon bosimini yanada oshiradi-shu tarzda zararli aylana yuzaga keladi. Renin-angiotensin tizimining faollashuvi- Yuqori qon bosimi buyrakda renin- angiotensin tizimini faollashtiradi. Bu tizim qon bosimini oshiruvchi moddalarning ishlab chiqarilishini ko'paytiradi va qon

bosimini nazorat qilish mexanizmlarini buzadi, bu esa kasallik jarayonini kuchaytiradi. Qandli diabet (diabetik nefropatiya)- Qandli diabet - buyrak kasalliklarining eng ko'p uchraydigan va xavfli sababi hisoblanadi. Diabetning buyraklarga ta'siri quyidagicha bo'ladi: Qon shakarining yuqori darajasi buyrak hujayralariga zarar yetkazadi. Qonda glyukoza miqdori uzoq muddat yuqori bo'lsa, buyrakdagi filtrator tuzilmalar glomerullar (mayda qon tomirlari) zarar ko'radi. Ularning devorlari qalinlashib, elastikligi pasayadi va buyrakning filtratsiya qobiliyati yomonlashadi. Diabetik nefropatiya rivojlanadi. Bu diabet natijasida paydo bo'ladigan surunkali buyrak kasalligi. Glomerullar to'qimasida o'zgarishlar yuzaga kelib, buyraklar asta-sekin o'z vazifasini yo'qotadi. Proteinuriya (siydikda oqsil chiqishi) Zararlangan glomerullar orqali oqsil siydikka o'tadi. Bu esa buyrak to'qimalarining yanada buzilishiga olib keladi. Buyraklarda qon aylanishining buzilishi Diabet qon tomirlarining holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, buyrak ichidagi mayda kapillyarlar shikastlanadi, buyrak to'qimalarida kislorod yetishmovchiligi yuzaga keladi. Renin-angiotensin tizimining faollashuvi Diabetik sharoitlarda bu tizim faollashadi, bu esa qon bosimini oshiradi va buyrakdagi zarar jarayonini kuchaytiradi. Bulardan tashqari surunkali infeksiyalar va bakterial yallig'lanishlar (pielonefrit), glomerulonefrit - buyraklarning filtr funksiyasini buzuvchi yallig'lanish, genetik kasalliklar va buyrak kistalari, toksik moddalar va dori vositalarining uzoq muddatli ta'siri. Belgilari va simptomlari Buyrak kasalliklari o'zini turlicha ko'rsatadi, ammo asosiy belgilar quyidagilar: To'qimalarda shishlar (ayniqsa oyoq va yuzda), qon bosimining doimiy ko'tarilishi, siydikning hajmi yoki tarkibidagi o'zgarishlar (qon yoki oqsil aralashuvi), bosh og'rig'i, charchoq, bosh aylanishi, qorin sohasida og'riq yoki noqulaylik. Diagnostika usullari qon va siydik tahlillari (oqsil, kreatinin, siydikda qon izlari), buyraklarning ultratovush tekshiruv, biopsiya (zarur hollarda), qon bosimini doimiy nazorat qilish. Davolash va oldini olish Kasallik sababini aniqlab, shunga qarab davolash: qon bosimini tushiruvchi, diabetni nazorat qiluvchi dori vositalari, suyuqlik va tuz miqdorini cheklash, surunkali bosqichda dializ yoki buyrak transplantatsiyasi zarur bo'lishi mumkin, sog'lom turmush tarzini olib borish, muntazam tibbiy ko'riklardan o'tish

Xulosa Buyrak kasalliklari inson salomatligi uchun jiddiy tahdid bo'lib, ularning erta aniqlanishi va to'g'ri davolash usullarini qo'llash kasallik oqimini sekinlashtiradi hamda hayot sifatini yaxshilaydi. Shu sababli, profilaktik choralar ko'rilishi va muntazam tibbiy tekshiruvlar o'tkazilishi katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005 yil)
2. Jurnal ximii tovarov i narodnoy meditsiny 1(3):165-173
3. Мурдахаев Ю.М. — Ўзбекистонда ватан топган доривор ўсимликлар| Тошкент, 1990.
4. Akbarova, Muhayyo Xusanovna, & Dadajonova, Sevara O'Ktamjon Qizi (2022). KO'KAMARON SCUTELLARIA L. (LAMIACEAE) TURKUMINING AYRIM DORIVOR VAKILLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10-2), 622-629.

5. Matyakubov , R. ., & Nazirtashova, R. M. . (2021). Valuable Raw Materials For Producing Furfural. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(06), 159–165.

8. Усмонов, А. Х., & Дехканова, Н. Н. ЗАКОНОМЕРНОСТИ АДСОРБЦИИ СЕРОВОДОРОДА, В ЦЕОЛИТЕ NaX. ЖАРЧЫСЫ, 279.

9. Дехканова, Н. Н. (2021). ВНЕДРЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТРАНСФОРМАЦИЙ В ВЫСШИЕ УЧЕБНЫЕ ЗАВЕДЕНИЯ. Научный редактор, 29.